**UYGA VAZIFA**

1. Movavi Video Editor dasturini ishga tushiring.
2. Yangi lohiya yarating.
3. Loyihaga 3 ta mediafayl yuklang.
4. Loyihani 1-dars.mepx nomi bilan saqlang.

# 21-dars. VIDEOMUHARRIRLARDA VIDEO VA FOTOLARNI TAHRIRLASH



Videoni kesish va fragmentlarga bo‘lish amallari uskunalar panelidagi “Split” (qaychi belgisi bilan belgilangan) kesish uskunasi (CTRL+B) yordamida amalga oshiriladi.

**VIDEONI KESISH**




**VIDEONI FRAGMENTLARGA BO‘LISH**



## VIDEODA FRAGMENTLARNI O‘CHIRISH




## VIDEONI BURISH

Movavi Video Editor dasturida videoni burish uchun “Rotate” uskunasidan foydalaniladi. Burilish burchagi 90 gradus bo‘yicha bo‘ladi.



Buning uchun:

1) montaj stolidan kerakli video tanlanadi;
2) uskunalar panelidan Rotate uskunasi tanlanadi. Videoni yana burish kerak bo‘lsa, uskuna takror tanlanadi.

## RANG KORREKSIYASI

Tasvirning yorqinligi va kontrastini yaxshilash uchun rang korreksiyasi sozlamalaridan foydalanish mumkin. Buning uchun:



1) montaj stolidan rangi sozlanishi kerak bo‘lgan video tanlanadi;
2) uskunalar panelidan “Color Adjustments” uskunasi tanlanadi;
3) “Easy” shablonlari yordamida kontrast, to‘yinganlik va oq rang balansi sozlanadi;
4) “Advanced” bandida oq rang balansi, yorug‘lik, kontrast va tasvir rangining standart sozlamalari mavjud. Slayderlarni siljitish orqali tasvir ranglari o‘zgartiriladi.

## VIDEONING TEZLIGINI SOZLASH

Videoning tezligi uskunasi video va audiofayllarni tezlashtirish yoki sekinlashtirish imkonini beradi. Buning uchun:

1) montaj stolidan tezlashtirish yoki sekinlashtirish kerak bo‘lgan video (audio) tanlanadi;
2) uskunalar panelidan “Clip Properties” uskunasi tanlanadi;
3) tezlik slayderi kerakli darajaga o‘rnatiladi (100% – videoning asl tezligi).

Videoning tezligi uning davomiyligi va montaj stolida videoning uzunligida aks etadi. O'zgartirilgan video tezligida yulduzcha belgisi paydo bo'ladi.






## AMALIY MASHG'ULOT

**Yaratilgan videoni turli qurilmalarga export qilish.**

| | |
|---|---|
| Barcha tahrirlash ishlari tugaganidan so'ng, menyular bandidan "Export — Export Video..." buyrug'i tanlanadi. |   |
| Kerakli chiquvchi videoformat tanlanadi. Masalan, *.MP4. |  |
| Video faylga nom beriladi. |   |
| Saqlash joyi ko'rsatiladi. |   |
| Videoning sifati tanlanadi. |   |
| Kerakli sozlamalar ko'rsatilganidan so'ng, "Start" tugmachasi bosiladi. |   |

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Videoni fragmentlarga ajratish qanday amalga oshiriladi?
2. Videoni kesish uchun klaviaturaning qaysi tugmachasi bosiladi?
3. Videoni burish uchun qaysi uskunadan foydalaniladi?
4. Movavi Video Editor dasturida yaratilgan loyihani bo'yash uchun qaysi uskuna tanlanadi?
5. Montaj stoli qayerda joylashgan bo'ladi?

UYGA VAZIFA

1. Mobil qurilma yordamida birorta videoni suratga oling.
2. Olingan videoni 90 gradusga aylantiring.
3. Avtokorreksiya yordamida videoga rang bering.
4. Loyihani "phone" nomi bilan saqlang.

# 22-dars. VIDEOMUHARRIRLARDA O'TISHLAR, FILTRLAR VA CHROMA KEY BILAN ISHLASH

### VIDEOGA O'TISHLARNI BIRIKTIRISH

O'tishlardan turli shakl va shaffoflikdan foydalangan holda videofragmentlar orasiga maxsus animatsiya joylashtirish uchun foydalaniladi.

